

“QORAQALPOQNOMA” ROMAN – ESSESI HAQIDA**Aliyeva****Dilshoda**

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi

Mirzayeva Norayxon, Xusanova**Durdona**

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola qoraqalpoq ijodkori To'lapbergan Qayipberganovning "Qoraqalpoqnoma" roman-essesi haqida. Ushbu asarda qoraqalpoq xalqining madaniyati, tarixi kabi ma'lumotlar keltirilgan

Аннотация: Эта статья посвящена роману-эссе каракалпакского писателя Толапбергана Кайипбергана "Каракалпакнома". В этом произведении приведены сведения о культуре и истории каракалпакского народа.

Annotation: This article is about the novel-essay "Qoraqalpoqnoma" by the Karakalpak writer To'lapbergan Qayipberganov. This work contains information about the culture and history of the Karakalpak people.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq atamasining kelib chiqishi, badiiy uslub, xalq tarixi, Ko'cha biyi, ijodkorlar turi, adibning o'z-o'ziga bergan intervyusi.

Ключевые слова: происхождение термина «қорақалпоқ», художественный стиль, народная история, Куча бийи, типы творцов, интервью писателя с самим собой.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston adabiy merosida To'lepbergen Qayipbergenovning o'rni beqiyosdir. Uning "Qoraqalpoqnoma" asari qoraqalpoq xalqining tarixi, madaniyati va milliy ongini o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Asar nafaqat badiiy, balki tarixiy-hikmatli unsurlarni ham o'zida mujassam etgan bo'lib, muallifning shaxsiy tajribalari bilan milliy qadriyatlar uyg'unlashgan.

Asar epigrafi:

Otang bolasi bo'lma,

Odam bolasi bo'l.

Maqol

O'zing haqingda yaxshi fikr aytsang, ishonuvchilar kam bo'ladi. Yomon fikr aytsang, hamma ishonadi.

Monten

Asarning boshlanishi ijodkor o'z-o'ziga intervyu bilan boshlangan. Nimaga bunday qilinganini adib shunday izohlaydi: "Inson umrining ma'nosi mudom o'z-o'zini tergash, o'z-o'ziga hisob berishdan iboratdir. Shundagini kishi kechmishini yaxshi ilg'aydi. O'z taqdiriga teranroq nazar tashlash esa xalq taqdiriga e'tibor bilan bir xil. Axir, har bir odam xalq taqdirini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir". Shu va shunga o'xshash savol-javoblar bitgandan so'ng yozuvchi asari boshlanadi.

Asarning eng asosiy g'oyasi — millatni sevis, ona yurtga sadoqat va madaniy merosni asrashdir. Qayipbergenov qoraqalpoq xalqining qadimiy urf-odatlarini, til va adabiyotini chuqur tahlil qilgan, shaxsiy tajribasi orqali o'quvchiga milliy ongini his ettiradi. Asarda shaxsiy xotiralar, bolalik va yoshlik davrlari orqali milliy tarix bilan bog'liq voqealar o'ziga xos badiiy obrazlarda ifodalanadi.

Badiiy uslub nuqtai nazaridan, Qayipbergenov murakkab va boy obrazli tasvirlar yaratishga intilgan. Asarda shaxsiy tajriba va milliy tarix uyg'unlashgan bo'lib, o'quvchida falsafiy mulohazalar uyg'otadi. Bu jihat asarni o'z davrining adabiy namunasi sifatida qadrlashga sabab bo'ladi.

O'z ichiga ko'plab hikoyalarni oluvchi bu asar o'zgacha hissiyot, qiziqish bilan o'qiladi. Hikoyalarning ba'zilarini To'lapbergan o'z bolaligini eslab so'zlasa, ayrimlarini "Ko'cha biyi" nomi bilan tanilgan yoshi ulug' kampirlardan eshitganini aytib o'tadi. Ko'cha biyilar—har urug'da, ovulda saylanadigan, gapga usta, ko'p narsadan xabardor, aqlli odamlar bo'ladi.

Ko'cha biyi tomonidan aytib berilgan bir afsonada qoraqalpoq xalqining nomlanishi juda chiroyli tarzda yoritib beriladi. Alloh taoloning barcha qabilalarga

nom berib, bu xalqqa yetib kelganda kishilarning qalpoqlariga qarab Qoraqalpoq deb vaqtinchalik nom bergani, keyinchalik esa shu nom bilan qolib ketishlari, qayerda bo'lmasin o'z nomlarini eshitishsa, har xil tilda har xil atalsa-da, o'zlarini tanishib, tanitib olganlari o'zgacha tarzda yoritilgan.

Bundan tashqari asarda tarbiyaviy, ilmiy, afsonaviy ko'plab hikoyatlar keltirilgan.

Adib asarida ijodkorlar asarlarini insonlar kabi uchga bo'ladi: hali tug'ilmagan; yashab kelayotgan; tug'iliboq o'limga mahkum bo'lganlar.

Dunyoda qancha ijodkorlar borligini so'rashganda, men va boshqalar qabilida javob beradi. Qaysi biri yaxshiroq, deb so'rashganda, boshqalarni yoqlashi orqali adibni o'ynoqi so'zlarga ustaligi, har so'zni o'z o'rnida qo'llay bilishiga qoyil qolmasdan iloj yo'q.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Qoraqalpoqnoma" asari qoraqalpoq adabiyotida esse janrining rivojiga katta hissa qo'shgan. U nafaqat muallifning shaxsiy fikr va mulohazalarini, balki millatning tarixiy va madaniy o'zligini aks ettiradi. Asar o'quvchida vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va tarixiy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Qayipbergenovning badiiy mahorati orqali qoraqalpoq madaniy merosi yuksak badiiy shaklda ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Kh-davron.uz <https://share.google/bfSL4GkrQMf4YOx8V>
2. Wikipedia <https://share.google/MyQeXOrbZ6pIyvKmb>
- 3.<https://share.google/PNS6zuQNyYjKb5gu0>
4. Kutubxonachi.uz <https://share.google/f5zJbFa8xrwGtpJsR>